

Respublikamizdagi OTMLar soni 162 taga yetdi.  
Ular orasida:

Nodavlat OTMLar:  
25 ta

Xorijiy OTMLar va filiallari:  
30 ta

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 65 (16518)  
2022-yil, 17-sentabr  
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan

**Yoshlar yetakchisi**  
4-bet

88 nafar yoshni  
ishli qildim

**O'zbekiston iftixori**  
5-bet

Nodirbek Yoqubboyev:  
"Bizdan o'rganishsa arziydi"

**Til bilimi**  
7-bet

Quda-anda:  
anda kim?



## YIRIK SIYOSIY VA DIPLOMATIK ANJUMAN

15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti  
Davlat rahbarlari kengashining 22-sammiti o'z nihoyasiga yetdi.

batafsil  
2-betda

# YIRIK SIYOSIY VA DIPLOMATIK ANJUMAN

**Shahruza SATTOROVA.**  
Prezident matbuot xizmati ma-  
teriallari asosida tayyorlandi.



**15-16** -sentabr kunlari butun dunyo nigohi O'zbekistonga qaratildi. Negaki sivilizatsiyalararo muloqot va madaniy gumanitar hamkorlikni mustahkamlash uchun istiqbolli platforma hisoblangan Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitiga O'zbekiston mezbonlik qilmoqda.

Avval xabar qilinganidek, SHHTda ishtirok etayotgan barcha mamlakatlar rahbarlari O'zbekistonga keldi. Sammitda 8 ta a'zo mamlakat – O'zbekiston, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, 3 ta kuzatuvchi maqomidagi mamlakat – Belarus, Eron, Mo'g'uliston va mehmon sifatida taklif etilgan mamlakat – Turkiya, Ozarbayjon, Turkmaniston davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi.

## SAMMIT OLDDAN

Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti oldidan bo'lib o'tgan davlat va hukumatlar rahbarlarining ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralari yakunlangandan so'ng mamlakat rahbarlari "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazida daraxt ekdi.

Sharq xalqlari qadriyatiga ko'ra, daraxt ekish – xayrli ish. Mamlakatlarimiz yetakchilari birgalikda ekan daraxtlar ham SHHT mamlakatlarining do'stligi, yaxshi qo'shnihiligi, taraqqiyot va ravnaq sari mushtarak intilishlari ramzidir.

Davlat rahbarlari birgalikda "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasiga bordi. Majmuada qadimiy shaharlarimiz qiyofasi, milliy an'analarimiz va do'st xalqlar bilan aloqalar tarixi ham aks ettirilgan. Xususan, Afrosiyob yodgorligi devorlarida saqlanib qolgan Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalanilgan.

Bunday ma'no-mazmun, tarix va bugungi kun uyg'unligi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Shu yerda Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar yetakchilarining tashrifi sharafiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan qabul marosimi o'tkazildi. Davlat rahbarlari o'rtasida samimiy muloqot bo'ldi. Ular Samarqand sammiti yuksak saviyada o'tayotgani, bugun ikki tomonlama uchrashuvlarda muhim kelishuvlarga erishilganini qayd etdilar.

Sahnadagi kuy-qo'shiqlarda o'zaro hurmat va do'stlik, tinchlik, mehr-muhabbat kabi umum-bashariy qadriyatlar tarannum etildi.

## ASOSIY TADBIRLAR

Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining asosiy tadbirlari 16-sentabr kuni Samarqanddagi Kongress markazida bo'lib o'tdi. Dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev SHHT davlat rahbarlari kengashining tor doiradagi uchrashuvi ishtirokchilarini kutib oldi va ular birgalikda suratga tushdi. So'ng SHHT davlat rahbarlari kengashining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Majlis kun tartibiga muvofiq, davlat rahbarlari SHHT doirasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbolini muhokama qildilar, mintaqada yuzaga kelayotgan siyosiy va iqtisodiy vaziyatni hisobga holda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida O'zbekistonning 2021-2022-yillarda SHHTga raisligi natijalari yuzasidan axborot berdi. Qayd etilganidek, bu davrda 80 dan ortiq yirik tadbir o'tkazildi. Pandemiyaning murakkab oqibatlari va yangi xavf-xatarlarga qaramay, O'zbekistonning SHHTga raisligi rejasiga o'zaro bajarildi.

Samarqand sammitida imzolash uchun salmoqli hujjatlar to'plami – 40 dan ziyod bitim va qarorlar taqdim etildi. Ularda SHHT davlatlarining o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, sanoat kooperatsiyasi, "yashil" iqtisodiyot, raqamlashtirish, savdo kabi eng muhim va istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlik qilishga doir umumiy yondashuvlari aks etgan.

Prezidentimiz SHHT tarixan qisqa davrda mintaqaviy va global jaryonlarning ta'sirchan ishtirokchisiga aylanganini ta'kidladi. Xavfsizlik va iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida tashkilotning barqarorlashtiruvchi roli kuchayib bormoqda.

Davlatimiz rahbari SHHTning blokarga qo'shilmaslik maqomini, ochiqlik va keng hamkorlikka qaratilgan ruhini saqlash, muros, teng huquqlilik va o'zaro hurmat prinsiplariga amal qilish zarurligini alohida ta'kidladi. Shularni hisobga olib hamda SHHT doirasidagi ko'p qirrali sheriklikning samarali tajribasiga tayanib, davlatimiz rahbari yaqin yillarda hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridagi ustuvor vazifalarni hal etishga doir aniq taklif va amaliy tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, SHHT faoliyatini bugungi voqeelikka moslashtirish, iqtisodiyot, savdo va investitsiya sohaslarida hamkorlik qilish, transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, ekologiya masalalari, madaniy-gumanitar aloqalarga to'xtalib o'tildi. Xavfsizlik muammolari va Afg'onistondagi vaziyatni tartibga solishga alohida e'tibor qaratildi.

So'zining yakunida Prezidentimiz SHHT kelajagi va mamlakatlarimiz rivoji ko'p jihatdan bahamjihat va samarali ishlashga bog'liq ekanini ta'kidladi. "Biz birgalikda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash maq-

sadida mamlakatlarimiz va xalqlarimiz taraqqiyoti va farovonligi yo'lida tashkilotni yangi marralarga olib chiqishga qodirmiz", – **deya ishonch bildirdi Shavkat Mirziyoyev.**

A'zo davlatlar yetakchilari o'z chiqishlarida SHHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalariga, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik muammolariga to'xtalib o'tdilar. Samarqand sammiti alohida tarixiy ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

SHHT Davlatlar rahbarlari kengashi majlisi kuzatuvchi mamlakatlar, faxriy mehmonlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom etdi. Sammit bunday keng formatda – 14 ta mamlakat yetakchilari ishtirokida birinchi marta o'tmoqda.

Majlis doirasida Eron Islom Respublikasining tashkilotga to'laqonli a'zo sifatidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandum imzolandi. Misr Arab Respublikasi va Qatar davlatiga muloqot bo'yicha sheriklar maqomi berildi. Belarus Respublikasiga SHHTning to'laqonli a'zosi, Bahrayn Podshohligi, Kuvayt, Maldiv Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari va Myanma Ittifoqi Respublikasiga muloqot bo'yicha sheriklar maqomini berish jarayonlari boshlandi.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tartibdagi majlisi uchuniga yetdi. Ishtirokchilar **Samarqand deklaratsiyasini qabul qilishdi. Tashkilotning navbatdagi sammiti ilk bor Hindistonda o'tkaziladi.**

Umuman olganda, ushbu sammit umumiy xavfsizlik va taraqqiyot yo'lidagi o'zaro hurmat, ishonch, konstruktiv hamkorlik prinsiplariga asoslangan yangi, inklyuziv muloqotni yo'lga qo'yish borasida o'ziga xos namuna bo'la oldi.

66

**SAMMIT BUNDAY KENG FORMATDA –  
14 TA MAMLAKAT YETAKCHILARI  
ISHTIROKIDA BIRINCHI MARTA  
O'TMOQDA.**





# MUAMMOLAR YO'QMI?

Bugungi kunda talabalar orasida eng ko'p muhokamalarga, tushunmovchiliklarga sabab bo'layotgan mavzulardan biri ta'lim kreditidir. Xo'sh, bu kredit kimlarga beriladi? Ta'lim shaklining ahamiyati bormi? Qanday hujjatlar kerak? Qaysi banklar kredit ajratadi? Maqolada shu kabi savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Shahruza SATTOROVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

## KIMLARGA BERILADI?

Xabaringiz bo'lsa, oliy ta'lim muassasalari talabalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, Markaziy bankning asosiy stavkasi (14 foiz) miqdorida ta'lim krediti ajratilishi belgilangan edi. Ta'lim kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to'lash oliy ta'lim tashkilotiga mablag'lar o'tkazilgan sanadan boshlab asosiy qarzni qaytarish esa talababning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi. **Ta'lim krediti O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan davlat, nodavlat, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida bakalavriat hamda magistraturada tahsil olayotgan talabalarga to'lab beriladi.** Bunda siz bilan oila a'zolaringiz va vasiylaringiz to'lashda qatnashishi mumkin.

## FAQAT KONTRAKT UCHUN SARFLASH KERAK

Ta'lim krediti tijorat banklari tomonidan ularning qaytarilishi, muddatligi va ulardan maqsadli foydalanish shartlari asosida berilishi ko'rsatilgan. Bu nimani anglatadi? Avvalo, bu kreditning bir turi hisoblanadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, bankka borib menga kredit bering, farzandim yoki qarindoshim o'qishga kirgan, deyish bilan ish bitmaydi. To'lov qobiliyati, muddatligi prinsiplari, ya'ni uni qaytara olish-olmasligingiz hisob qilib beriladi. Olgan pulingizni aynan kontrakt uchun sarflashingiz e'tiborga olinadi. Agar bunga amal qilmasangiz, kredit bekor qilinishi mumkin.

## QANDAY HUJJATLAR TALAB ETILADI?

Mazkur kreditni olish uchun ta'lim krediti olish to'g'risidagi ariza, talaba va oliy ta'lim tashkiloti o'rtasidagi to'lov-kontrakt shartnomasi hamda unga ilova qilinadigan hisob varaqasi, bankning kredit siyosati, ichki tartibiga muvofiq ta'lim krediti qaytarilishining ta'minoti bo'yicha hujjat (garov va kafillik bo'lishi lozim. Bundan "ijtimoiy, himoya yagona reyestri"ga kirgan oilalarning farzandlari mustasno), "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma, bankning o'z ichki hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlar. Ota-onalar, aka-uka, opa-singillar yoki vasiylar ham nazarda tutilishi mumkin. Bularga birgalikda kredit oluvchilar deya maqom beriladi.

## XOTIN-QIZLARGA FOIZSIZ

Prezidentning 2022-yil 18-iyuldagi qaroriga ko'ra, to'lov-kontraktida o'qiyotgan xotin-qizlarga joriy yildan boshlab imtiyozli foizsiz ta'lim krediti beriladigan bo'ldi. Ta'lim krediti aslida 14 foizlik stavkada beriladi. Ammo bu foiz qismini xotin-qizlar to'lamaydi, davlat to'lab beradi. Aniqlirog'i, Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi tomonidan qoplanadi. Xotin-qizlar faqat ta'lim kreditining asosiy qismini to'laydi, xolos. Ta'lim kreditining asosiy qismi talababning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab

(ya'ni olti oy o'tib) 7 yil davomida qaytariladi. Masalan, **7 million so'm ta'lim krediti olinsa, o'qishni tugatgandan so'ng 6 oy o'tgach 7 yil mobaynida oyma-oy 83 ming so'mdan to'lab boriladi.**

O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalariga (davlat, xususiy va xorijiy OTMLar filiallari), o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga (texnikum, kasb-hunar kolleji va hokazo) kredit ajratiladi. Ammo kredit olishda ta'lim shakli ahamiyatli bo'lib, bu kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan xotin-qizlarga tegishlidir. Super-kontrakt, qo'shma ta'lim, masofaviy ta'lim, ikkinchi mutaxassislikda o'qish uchun imtiyozli ta'lim krediti ajratilmaydi.

## TA'LIM KREDITI OLISH OSONLASHDI

Ta'lim krediti olishni osonlashtirish uchun maxsus platforma yaratildi. **Ta'lim-kredit.uz** (<http://talim-kredit.uz/>) platformasi orqali barcha ta'lim muassasalarida turli shaklda to'lov-kontrakt asosida o'qiydigan talabalar ta'lim krediti olish uchun arizalarini onlayn yo'llashi mumkin. Eng muhimi, bankka bormasdan ariza berish imkoniyati bor.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlari "Agrobank", "Aloqabank", "Asakabank", "Hamkorbank", "Ipotekabank", "Mikrokreditbank", "O'zmilliybank", "Orient Finans Bank", "Qishloqqurilishbank", "O'z sanoatqurilishbank", "Turonbank", "Xalq bank"larida ajratiladi.

“  
ENG MUHIMI,  
BANKKA BORMASDAN  
ARIZA BERISH  
IMKONIYATI BOR.

## 88

## NAFAR YOSHNI ISHLI QILDIM

Ma'murjon  
TURSUNOV,Jondor tumanidagi "Yosh kuch"  
mahallasi yoshlar yetakchisi

Buxoro avtomobil yo'llari kasb-hunar kollejni tugatganman, lekin oilaviy sharoitim og'irligi sababli oliy ma'lumotli bo'lolmadim. Oilada katta farzandligim uchun ishlab pul topishim, ota-onamga ko'maklashishim, ukalarimning o'qishi uchun imkon yaratishim kerakligini o'ylardim.

Kunlarning birida ichki ishlar organiga yordamchi inspektor lavozimiga suhbat bo'layotganini eshitdim va harbiy xizmatni o'taganim bois suhbatga bordim. Suhbatdan o'tib, ishga qabul qilindim. Bir yil o'tmay mening shtatim yo'pilib, ishsiz qoldim.

Shu tariqa doim qayerda ish o'rni borligini eshitsam, o'sha joyga o'zimni urardim. Shunday qiyinchiliklar sabab yoshlar yetakchisi bo'lgach, mahallamda birorta ham ishsiz yosh qolmaydi, deb o'zimga so'z bergandim.

Yoshlar ro'yxatini shakllantirarkanman, ular orasida jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan Qahramon ismli yigitga alohida e'tibor berishni boshladim. Suhbatimdan bildimki, u maqsadsiz, atrofda insonlardan norozi kayfiyatda edi. Undan hamma o'zini olib qochishi joniga tekkani aytdi...

Avvalo uni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, o'qishga yubordim. Zimdan nazorat qilib, ko'proq suhbatlashishga harakat qildim. O'quv kursini tamomlab, haydovchilik guvoohnomasini oldi.



Suhbatimning birida u jazoni ijro etish muassasasida poyabzal tikish bilan shug'ullanganini, agar uskunalar bo'lsa, yana shu hunar bilan shug'ullanish istagini bildirdi. Hokim yordamchisi bilan birgalikda poyabzal ishlab chiqarish uchun zarur uskunalarni olish maqsadida 33 million so'mlik imtiyozli kredit ajratishga harakat qildik. Pul ajratilgach tikuv mashinasi, poyabzal zichlovchi apparat

va materiallar olib berdik. Hozir Qahramon bozorlar, do'konlar, harbiy qismlardan buyurtmalar olib, yaxshigina daromad olmoqda. Mahalla ahlining ham unga bo'lgan qarashi o'zgarib, farzandlarini shogirdlikka yubora boshladi. Buyurtmalar ko'paygach 7 nafar shogirdining ham bandligi ta'minlandi.

Mahallamiz yoshlaridan biri - Dildora Hamidova turmushidan ko'p o'tmay go'dak farzandi bilan beva qolgan edi. U bilan suhbat qilib, tikuvchilik hunari borligini bildim. Uni ham "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, subsidiya asosida tikuv mashinasi, averlog va boshqa asbob-uskunalar ajratib berdik. Hozir uyida kichik tikuv sexi ochib, 5 nafar yoshning bandligini ta'minladi.

Bizning qishloq sharoitida yoshlarning bandligini ta'minlashda eng yaxshi yechim bu chorvachilik deb bilaman. Ishsiz yurgan Bekzod Tojiyev ham chorvachilik bilan shug'ullanish istagini bildirdi. Buning uchun biznes reja ham tayyorlagan ekan. Hokim yordamchisi bilan gaplashib, Bekzodga imtiyozli kredit olib berishni aytdim. Hozir kreditga olgan 15 bosh qo'yi 22 ta bo'ldi.

Parrandachilik ham bugun mahallamiz yoshlarining daromad olishida eng yaxshi yechimlardan biri bo'lmoqda. Gulshan Nurxonova kreditga 500 bosh jo'ja parvarishlab, hozir ular sonini 1000 tadan oshirdi. Mahallamiz yoshlari orasida dehqonchilik qilish istagini bildirgan 48 nafar yoshga aukcion orqali 10 yil muddatga yer ajratib berdik. Ularning har biri birinchi hosilini sotib, ikkinchi ekinni yetishtirmoqda.

Ish boshlaganimdan buyon 88 nafar yoshni ish bilan ta'minladim va o'zimga bergan va'damning ustidan chiqayapman deb o'ylayman.

Besh tashabbus olimpiadasi

## "MAQSADIM CHEMPION BO'LISH",

- deydi navbahorlik polvon

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV, "Yoshlar ovozi" muxbiri

Hududlarda "Besh tashabbus olimpiadasi"ning mahallalar o'rtasidagi bahslari avj pallaga kirmoqda. Olimpiada sabab yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli o'tmoqda.

So'nggi kunlarda yengil atletika va voleybol bo'yicha bahslar tashkil etildi. Bo'yadorlik va chapastlikka asoslangan voleybol o'yini bir necha minglab yoshlarni qamrab oldi. Har bir mahallada bahslar muvofiq va keskin kechdi. Musobaqalarning e'tiborli tomoni shundaki, ko'plab mahallalarda o'yinlarni mas'ullar boshlab bermoqda. Bu orqali mahalla yoshlariga o'rnatilgan bo'lmoqda.

**Qarshi tumanidagi "Poshton" mahallasida** yoshlar yetakchisi shaxsiy namuna ko'rsatib, har bir bahs oldida "ilk qadam"ni tashlamoqda.

- Mahallamizda nafaqat voleybol, qolaversa, har bir sport turi bo'yicha musobaqalar qizg'in tashkil etilmoqda, - deydi "Poshton" mahallasi yoshlar yetakchisi Sabohat Yarasheva. - Eng asosiysi, mahalla yoshlaridagi shijoat va g'ayrat, sportga qiziqish musobaqalarda yorqin ko'rinmoqda. Yoshlarga qo'shilib o'zim ham o'yinlarda ishtirok etyapman. Ularning tetikligi, shijoati menga kuch bag'ishlaydi.



Olimpiadaning birinchi mavsumida "Poshton" mahallasi jamoasi yaxshi natijalar ko'rsatgan. Mahallaning voleybol jamoasi respublika final bosqichiga qadar yetib borgan. Finalda biroz tajribasizlik sabab g'oliblikni qo'lga kiritolmagan. Mahalla yoshlari bu mavsumda chempionlikni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan. Bu yo'lda tinimsiz mashg'ulotlar o'tkazildi, tajribali murabbiylar jalb etildi.

**Mirzaobod tumanidagi "Navbahor" mahallasida** sportning milliy kurash turi bo'yicha Bosh prokuror kubogining mahalla saralash bosqichi bo'lib o'tdi. Milliy kurashimiz bo'yicha ishtirokchilar o'z mahoratini sinab ko'rdi.

- Milliy kurashning "Besh tashabbus olimpiadasi"ga qo'shilgani kurashchi yoshlar uchun yaxshi yangilik bo'ldi, - deydi "Navbahor" mahallasi kurashchisi Qahramon Alimov. - Bolaligidan kurashga qiziqaman, bu sport turi bilan bir necha yildan buyon shug'ullanib kelaman. Hozir barcha raqiblarni yiqitib, sektor bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdim. Mening maqsadim, milliy kurash bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritish.

Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan yoshlar musobaqaning sektor bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi.

# NODIRBEK YOQUBBOYEV: “BIZDAN O‘RGANISHSA ARZIYDI”

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

suhbatlashdi

Shu yil Hindistonning Chennay shahrida o'tkazilgan 44-Jahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi musobaqa davomida biror marta ham mag'lub bo'lmagan holda tarixda ilk bor chempionlikni qo'lga kiritdi. Yigitlarimiz jahonda o'z so'zini aytdi, dunyo o'zbeklari yana bir bor tan oldi.

**B**uni qarangi, yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun shaxmat bo'yicha II Xalqaro turnirda ham shaxmatchilarimiz raqiblarini mot qildi. Shiddatli va murossasiz bahslar yakunida Nodirbek Yoqubboyev 10 turda 7½ ochko to'plab, xalqaro turnir g'olibi bo'ldi!

Tarixiy g'alabalarni qo'lga kiritayotgan xalqaro grossmeyster, "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohibi Nodirbek Yoqubboyevdan g'alaba zavqi, xalqaro olimpiadalardagi taassurotlar, shaxmatchilarning asosiy daromadi kabi shaxmat olamiga oid qiziqarli savollarga javob oldik.

Dastlab xorijdan O'zbekiston shaxmat terma jamoasiga jalb etilgan murabbiylarning jamoamiz natijalariga qay darajada samarali ta'sir ko'rsatayotgani bilan qiziqdik.

– Albatta, terma jamoamiz mashg'ulotlariga tajribali, bilim saviyasi yuqori bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish zarurati tug'ilgan edi. Shu bois Hindistonning Chennay shahrida o'tkazilgan

– Xalqaro olimpiadalar, turnirlar tufayli ko'plab chet davlatlarda bo'lasiz. Ayting-chi, biz xorijdan nimalarni o'rganishimiz mumkin?

– O'zbekiston shaxmati, madaniyati hech bir davlatdan qolishmaydi. Aksincha, butun shaxmat olami bizdan o'mak olsa arziydigan darajaga yetdik deb o'ylayman. Hozirgi kunda butun dunyo bizga havas qiladi. Biz shaxmat olamida o'z o'rniga ega davlatlardamiz. Istalgan davlat shaxmatchilari bilan tengma-teng bahs olib bora olamiz.

– Har bir sportchining orzusi shohsupaga chiqib, o'z yurtining bayrog'ini ko'tarishdir. Siz O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'targaningizda qalbingizdan qanday hislar o'tadi?

– Shohsupaga chiqqanda milliy g'ururimiz – O'zbekiston bayrog'i baland ko'tarilib, madhiyamiz yangraganda beixiyor ko'zga yosh keladi, Vatan tuyg'usini his qilais. Bu jarayonlarni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Siz tufayli yurtga, yuqinlaringizga, ota-onangizga rahmat kelishi, siz bilan g'ururlanib yurishlari ham o'zgacha hislarni ulashadi.



44-Jahon shaxmat olimpiadasidan oldin mutasaddilarga eng yuqori natijani qo'lga kiritishimiz uchun bizga yaxshiroq murabbiy kerak, degan talabni qo'ydik. Erkaklar terma jamoasi a'zolari bir ovozdan gollandiyalik grossmeyster, tajribali murabbiy Ivan Sokolovni olib kelishlarini O'zbekiston Shaxmat federatsiyasidan iltimos qildik. Olimpiada oldidan Ivan Sokolov Toshkentga kelib, biz bilan shug'ullanishni boshladi. Unchalik ko'p shug'ullanmagan bo'lsak-da, Sokolov bizda potentsiallikni va kuchni to'g'ri yo'naltira oldi. Albatta, oldingi ustozlarimizni ham unutib qo'yganimiz yo'q. Chunki shu darajaga yetishishimizda o'zbekistonlik grossmeyster ustozlarimizning ham ancha mehnati singgan.

– Siz uchun “parvoz zavqi” nimadan iborat? Mashhurlikmi yoki shaxmat o'ynash?

– Shaxmat o'ynasam, maza qilaman. Parvoz zavqi shu bo'lsa kerak, menimcha. Mashhurlikka erishishni orzu qilmaganman, lekin har bitta erishiigan yutuqlar orqasidan ma'lum bir mashhurlik keladi kishiga. Shuning uchun ko'proq natija ko'rsatishga harakat qilaman. Mashhurlik esa o'z-o'zidan keladi. Shaxmat o'yinidagi har bir partiyamga bor kuchimni beraman. Har bir dona uchun oxirigacha kurashaman.

– Har bir insonning cho'qqiga chiqqan davri bo'ladi. Siz uchun pik-faoliyatingizning cho'qqisi nima deb hisoblaysiz?



“

SHAXMAT O'YINIDAGI HAR BIR PARTIYAMGA BOR KUCHIMNI BERAMAN. HAR BIR DONA UCHUN OXIRIGACHA KURASHAMAN.

– O'ylaymanki, hali cho'qqiga chiqmadim. O'z ustimda ishlashda davom etaman. Oldinda hali musobaqalar ko'p. Shu yilning oxirigacha reyting ballarimni 2700 dan oshirishga harakat qilaman. Keyin jahon toji uchun kurashga kirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yanman. Olimpiadada faxrl o'rinlarga erishganimizdan keyin hozir turli tadbirlar, uchrashuvlarda qatnashyapmiz. Biroq shaxmat bilan shug'ullanishga ham vaqt topishga harakat qilyapman. Chunki o'z ustimda ishlashdan to'xtab qolsam, natijalar ham pastlab boradi.

– Shaxmatchilarning asosiy daromad manbaysi nimada?

– Ko'pchilik shaxmatchilar musobaqalardan, ya'ni mukofot fondi katta bo'lgan musobaqalarda qatnashib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib daromad qiladi. Qolaversa, shax-

matchi faoliyatini tugatgandan keyin murabbiylik bilan shug'ullanishi mumkin. Misol uchun, bizning faoliyatimizni erta tugatishga haqqimiz yo'q. Oldinda hali musobaqalar bor, "cho'qqi" ga erishganimiz yo'q. Shaxmat faoliyatini tugatgandan keyin murabbiylik faoliyatiga o'tishimizni o'ylab ko'rishimiz mumkin.

– Siz kabi katta yutuqlarga erishishni istagan yoshlar harakatni nimadan boshlashlari kerak?

– Har bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun, albatta, tinimsiz mehnat qilish kerak. Qolaversa, kishidan iste'dod talab qilinadi. Agar iste'dod bo'lmasa, o'sha sohada o'zini ko'rsatishi qiyin. Lekin mashhur bir gap bor, muvaffaqiyatning siri 99 foiz mehnatda, bir foiz iste'dodda. Yoshlar har doim mehnat qilishdan to'xtamasligi kerak.

## IPAK YO'LI DURDONASI

O'zbekiston Milliy matbuot markazida XIV Toshkent xalqaro kinofestivali doirasida "Hujjatli kino kunlari"ning birinchi kun taqdimoti va matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Anjumanda mamlakatimizda kino sohasiga qaratilayotgan e'tibor va imkoniyatlar, o'z tomoshabinlariga ega bo'lgan filmlarni yaratish borasida qilinayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, "Masterskaya" kinokompaniyasi hamda O'zbekiston Kinematografiya agentligi hamkorligida yaratilgan "O'zbekiston. Yangilangan tarix" hujjatli filmi premyerasi ham namoyish etildi. Filmida o'zbek millatining urf-odatlarini, madaniyatini, qadriyatlarini, shu asnodan tinchlik ne'matini asrash kabi g'oyalar keng yoritilgan.

Matbuot anjumanida yosh ijodkorlar va iqtidorini kino sohasida sinab ko'rmoqchi bo'lgan talaba-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishi bilan birga, kerakli tavsiya va ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

Marjona QURBONOVA,  
O'ZDJU talabasi

# MULTFILMMI *yoki* TARG'IBOT MASHINASI?

"Xo'ja Nasriddin", "Zumrad va Qimmat", "Ur, to'qmoq" – bu ertaklarning nomini eshitishimiz bilan beg'ubor bolalik davrimiz, keyinchalik bu ertaklar asosida ishlangan multfilmlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi.



**O**namiz yoki buvimizga "ertak aytib bering", deb xarxasha qilgan vaqtlarimizni eslab, beixtiyor tabassum qilamiz. Qanchalik baxtiyor onlar edi-ya?! Ammo oradan vaqt o'tib, bu xayrli odat yo'qolib, o'rnini axborot asrining shiddati gadjetlari egallab oldi. Farzandini shunchaki vaqt o'tkazishi uchun televizor qarshisiga o'tkazib qo'yadigan onalar, telefoniga o'rnatilgan mobil o'yinlarni qanday o'ynashni bolasiga o'rgatayotgan otalar balki vaziyatni hanzuz tushunib yetmayotgandir.

"Ertaklar yaxshilikka yetaklar", degan naql ayni haqiqat. O'zbek xalq

ertaklarini o'qib chiqqan yoki bolaligida hech bo'lmasa bir bor eshitgan inson buni tasdiqlay oladi. Ulardagi ezigulikka, o'zaro rahm-shafqatli, mehr-oqibatli bo'lishga undashni his etib ulg'aygan go'dakdan yomon inson chiqmaydi. Ammo gap axborot asridagi shiddatli o'zgarishlar haqida ketar ekan, ertaklar o'rni egallab borayotgan multfilmlarga to'xtalib o'tmay iloj yo'q. Bu farzand tarbiyalayotgan har qanday oila uchun biron xavotirli bo'lishi kerak. Chunki asosan g'arb ekranlarida tug'ilib, bizga ham "ko'chib" ulguragan aqsqa yoki ko'p seriyali multfilmlarni sevimli tomosha qiluvchilarning katta qismini bog'cha yoshidagi yoki undan ham kichik bolajonlar tashkil etadi.

## 1. NIMASI XAVOTIRLI?



G'arbning g'arbona madaniyati, aniqrog'i, bizning milliy mentalitetimizga yot g'oyalari goh yashirin, goh oshkora targ'ib etilayotgan bu multfilmlarning asosiy vazifasi siz-u biz bilgan yoki taxmin qilgan narsalardan iborat emas. Biz ushbu multfilmlarning aksariyat lavhalarini bir necha bor ko'rganmiz, eslaymiz va bilamiz, ularda yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi yoki shunchaki mushuk-sichqon sho'xliklari ifodalangan, deb o'ylaymiz. Aslida esa ishini juda yaxshi uddalaydigan ayrim "uddaburon"lar o'z g'oyaviy yurishini rang-barang tasvirlar, kulgili sahnalar orqali shunday ustamonlik bilan targ'ib qilishadiki, siz-u bizni qiziqitirmaydigan nozik lavhalar aslida bola ongingning markaziga joylashishini biladi va buni uddalashadi ham.

Masalan, bir necha bor nufuzli "Oskar" mukofotiga loyiq deb topilgan multfilm – "Tom va Jerry"ni olaylik. Amerikalik multiplikatorlar Uilyam Hanna, Jozef Barbera, rassom Irvin Spens va Kennet Myuslar tomonidan yaratilib, 1940-yilning 4-fevral sanasidan ekranlarda namoyish etilgan bu multiserial tez orada butun dunyo bo'ylab dovruc qozona boshladi. 1958-yilgacha prodyuser Fred Kuimbi hamda bastakor Skott Bredli tomonidan multiserialdagi lavhalar turli musiqiy ohanglar bilan yanada boyitildi.

Multiserial ijodkorlari tomonidan ushbu filmida bolalar uchun zarur bo'lgan do'stlik, mehr-oqibat, sport va musiqaga bo'lgan muhabbat targ'ib etilishi ta'kidlangan. Ammo... kichik yoshli bolajonlar uchun mo'ljallangan multfilmida bu jihatlarga emas, ko'proq behayollik targ'ibotiga urg'u berilgani ayni haqiqat. Filmidagi ayrim qismlarda uchrovchi lavhalar tahlil qilinganda shu ma'lum bo'ldiki, mushuk va sichqoncha o'rtasidagi munosabat ortidan kelib chiqadigan o'zaro nizolar, kelishmovchiliklar tasvirlangan sahnalar yuqori shiddat bilan kechsa, behayollikni targ'ib etuvchi ayrim lavhalar sekinlashtirilgan, musiqiy hamohanglik bilan namoyish etiladi. Kattalarga xos kechinmalarni sevimli multqahramoni orqali kuzatgan go'dak ongida qanday o'zgarishlar yuz

berishi mumkinligini taxmin etish uchun psixolog yordami shart emas, nazarimda.

Yoki ochiqdan-ochiq ehtirosli sahnalari bilan targ'ibot mashinasiga aylangan yana bir multfilmni misol qilsak. Mashhur "1001 kecha" ertagi asosida yaratilgan, voqealar rivoji Bog'dod tasviri bilan uyg'unlashtirilgan multfilm "Alovuddin" ko'pchiligimizga tanish. Malika kiyadigan o'ta ochiq libos, yig'itga bo'lgan tuyg'ularini oshkora izhor etishi kabi jihatlari bilan o'zbekona madaniyatga mutlaqo to'g'ri kelmasligi ko'rinib turgan bu multiserial bir necha bor qayta ishlanib, zamonaviylashtirilgan bo'lsa-da, hanuz yana bir g'oyani "tashish"da davom etmoqda: bu oson boylikka erishish, harakat qilmasdan, hech qanday mashaqqatli mehnatsiz sehirli yordamchi ko'magida boyib ketish istagi. Alovuddinda buni yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Sehrlil dastyor bilan boyib ketish, shon-shuhratga erishish tasvirlangan multfilm va ertaklar o'zbek adabiyotida ham yo'q emas. Masalan, atoqli yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Sehrlil qalpoqcha"ni olaylik. Farqli ravishda, yozuvchi bu bilan nima demochiligini, o'z kuchi bilan emas, sehir yoki boshqalar yordami bilan erishilgan narsalar qanday xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkinligini asar so'ngida tasvirlab bera oldi.

Ziyoda RAHIMBOYEVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri


## 2. BOR, AMMO KO'P EMAS

Bu kabi ma'naviy xurujlar, yashirin targ'ibotlardan himoyalaniş "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya" tamoyili asosida amalga oshirilishi kerak bo'lgan muhim va kechiktirib bo'lmas jarayonlardan biri. Bugun milliy televideniye-mizda o'ziga xos multfilmlar ishlab chiqilayotgani va tomoshabinlarga manzur bo'layotgani sir emas. Biroq bu ishlar tizimli ravishda davom etishi zarur. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", deya o'z asarlarida ta'lim-tarbiya to'g'risida gapirib, uning qanchalik kerakligini e'tirof etgani ham bejiz emas!

Farzand tarbiyasi, kelajakka yozilgan maktubdek, chiroyli niyat va orzu-umidlar bilan bunyod etilayotgan binoga o'xshatiladi. Poydevori mustahkam bo'lgan har qanday inshoot turli tashqi ta'sirlarga bardoshli bo'lganidek, poydevori be'e'tiborlik bilan qo'yilgan bino naqadar ko'rkam ko'rinmasin, vaqti kelib, albatta, aslini ko'rsatadi. Asliyatga e'tiborsizlik bilan qararamang, azizlar. Qiyinchiliklardan o'tib, yorug'lik sari intilayotgan butun bir millat kelajagi yoshlar qo'liga ekanini unutmang!

“

AYRIM  
"UDDABURON"LAR  
O'Z G'OYAVIY  
YURISHINI RANG-  
BARANG TASVIRLAR,  
KULGILI SAHNALAR  
ORQALI SHUNDAY  
USTAMONLIK  
BILAN TARG'IB  
QILISHADIKI, SIZ-U  
BIZNI QIZIQITIRMAY-  
DIGAN NOZIK  
LAVHALAR ASLIDA  
BOLA ONGINING  
MARKAZIGA JOYLA-  
SHISHINI BILADI VA  
BUNI UDDALASHADI  
HAM.



Shahribonu RAHMATOVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri

# XO'ROZQAND CHET ELNIKI!

## MARHAMAT!

### O'ZBEK SERIALLARI BO'LMAYDI, TURKLARNI- KI-CHI?

Yaqinda qarindoshimnikida mehmonda bo'ldim. 3-sinf jiyanim "Palonchi pistonchini sevadi, lekin pistonchi qizning singlisini sevadi", deydi. Ekranida esa turk seriali. Televizor pultini olib, boshqa kanalga o'tkzamsam, unda ham turk filmi.

Bugun yurtimiz telekanallarida eng ko'p efigra uzatilayotgan filmlar turk seriallari bo'lsa kerak. Tomoshabinlar ham biror seriyani qoldirmay, yangi

qismlarni intizorlik bilan kutadi. Nega, bilasizmi? Chunki tomoshabinda boshqa chora yo'q. "O'zbek kinolari bo'lmaydi, faqat er-xotin, qaynona-kelin majarolari qo'yiladi" kabi gaplar bilan "bo'lmaydi" degan fikri miyamizga singdirib olganmiz.

O'zbek seriallarini ko'rmagan xalqimizda turknikini ko'rishdan boshqa variant qolmaydi. Aslida turk seriallarining asosiy mavzulari biznikidan farq qilmaydi. Ularda ham oilaviy majarolar, bir muammo ortidan paydo bo'lgan yillab davom etuvchi nizolar asosiy o'rin egallaydi. Faqat turk aktyorlari o'z rollarini mahorat bilan o'ynaydi, xolos.

### FILMNING KEYINGI QISMI YOKI KELAJAKDA- GI REJALAR

Tanlov kamligi, turk seriallari ekranlarimizni egallab olgani sabab, yoshlar, bolalar ham ularni tomosha qilmoqda. Lekin yoshlarimizda televizor ko'rishdan boshqa

mashg'ulot yo'qmi? Kun bo'yi sport bilan shug'ullanadigan sportchining orzusidagi inson qaysidir jahon chempioni bo'ladi. Ya'ni siz nima bilan band bo'lsangiz, shu sohaning oldi insonlariga havas qilasiz.

Mana, nima uchun doimiy tarzda serial tomosha qiladigan yoshlar aktyor va aktrisalarni "boshiga ko'tarib" olgan. Qaniydi ular bugun turk aktyorlariga talpingani kabi sportchi, fan olimpiadasi chempionlari, tasviriy va badiiy san'at ustalariga oshiqsa, filmning keyingi qismi haqida emas, kelajak rejalari to'g'risida bosh qotirsa. Yoshlarni bu botqoqdan tezroq chiqarib olish, to'garaklarga va hunar o'rganishga, hech bo'lmaganda, mutolaaga jalb qilish kerak.

### YOSHLAR KIMNING KUYIGA O'YNAMOQDA?

Shu o'rinda yana bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Bolalar bog'chasi va maktablardagi madaniy-ma'rifiy kechalarda eng so'nggi "moda" qo'shiqlar qo'yilib, bolalar shunga raqz tushmoqda. Xuddi bu musiqalarga o'ynash bolalar o'rtasida ham trendga aylangandek. Ijtimoiy tarmoqlarda tengdoshlaridan boshqacha o'ynagan, turli beo'xshov harakatlarni qilayotgan bolalarning videolari tarqalsa, hamma miriqib tomosha qiladi, havas bilan qaraydi. Ammo musiqaga kamdan-kam inson e'tibor beradi.

Har bir yoshning quloqchida chet el musiqasi yangraydi, bunday musiqalarni tinglovchi yoshlar o'zini boshqalardan ustun deb o'ylaydi. Agar ularning ongida milliy musiqalarimizga mehmi yoshligidan shakllantirmasak, o'zligini tanitmasak, milliyligimiz va tilimiz har qanday holatda ham birinchi o'rinda turishi zarurligini tushuntirmasak, kelajak avlod bundan-da "zamonaviy" bo'ladi.

**13-18** -sentabr kunlari poytaxtimizda o'tkazilayotgan "Ipak yo'li durdonasi" XIV Toshkent xalqaro kinofestivalida dunyoga mashhur bir qator aktyorlar qatorida turkiyalik Burak O'zchivit ham ishtirok etmoqda. Bu xabar yetib bormagan teshik quloq qolmagan bo'lsa kerak! Uni bir ko'rish, suratga tushish yoki suhbatini olish uchun nechta insonning cho'ntagiy quriydi?! Burakning ishqida yonayotgan o'zbek aktrisasi, aktyori, nufuzli shaxslar-u yoshlarning to'kayotgan ko'z yoshi, ichida qolayotgan alamini aytmayisizmi?!

Esingizda bo'lsa, o'tgan gal, ya'ni 2019-yil fevral oyida ham u Toshkentga muxlisalari bilan ziyofatda ishtirok etish uchun kelgan edi. Ziyofatda O'zbekistondagi nufuzli shaxslarning rafiqalari, biznes-ledilar, moda biznesi vakillari ham bo'lgan. Burak O'zchivit 2,5 soatlik suhbat evaziga 2 million turk lirasini (qariyb 380 ming dollar) ishlab olgan, "Zo'rTV" telekanalida bir nechta ko'rsatuvlarda ishtirok etgan va reklama loyihalarida suratga tushgan.

Sezganmisiz, **chetdan taniqli kinoaktyorlar kelganda or-nomus, g'urur, uyat degan tushunchalar chetga surilib, asl yuzimiz ochilib qoladi.** Ular yoshlarning orzusidagi shaxsga aylanib ketganini Toshkent ko'chalari bo'ylab sayr qilayotgan Burak bilan suratga tushish uchun intilayotgan bir to'p o'zbek qizlarining ahvoli ham ko'rsatib turibdi. Keling, birgalikda buning sabablarini izlab ko'ramiz.

Orif TOLIB



# QUDA- ANDA: ANDA KIM?

**Ba'zi juft so'zlarni ko'p ishlatamiz-u, ikkinchi qismi nima ma'no anglatishini har doim ham aniq bilavermaymiz. Quda-anda ham ana shunday so'zlardan.**

Izohli lug'atga ko'ra, anda qadimgi turkmo'g'ul xalqlarida tutingan aka-ukani anglatadi. Milliy ensiklopediya qo'shimcha ma'lumotlarni ham keltirgan: anda bo'lishni istagan shaxslar qon chiqarib, uni bir-birlariga surtganlar va umrbod aka-uka tutinganlar. Masalan, Chingizxon jajirat qabilasi rahbari Jamuxa bilan anda tutingan.

### DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMA: FARQI NIMADA?

Izohli lug'atga ko'ra, darslik - fanning biror sohasi bo'yicha o'quvchilar va talabalar uchun mo'ljallab yozilgan kitob. U

o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turidir.


O'quv qo'llanma - bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yaxshiroq o'zlashtirishga xizmat qiladigan vosita. O'quv jarayonida foydalaniladigan tabiiy obyektlar, asbob-uskunalar, jadvallar, xarita, kinofilmlar, audio va boshqalar ham o'quv qo'llanma hisoblanishi mumkin.

Ta'lim nuqtayi nazaridan qaraganda, o'quv qo'llanma darslikni to'ldiruvchi yoki uning o'rnini qisman bosuvchi, rasman tasdiqlangan o'quv adabiyotidir. Mustaqil o'qish kitoblari, xrestomatiyalar, ma'lumotnoma-kitoblar, lug'atlar, chet tili bo'yicha matn moslashtirilgan kitoblar, mashqlar to'plamlari, mustaqil shug'ullanish uchun metodik yo'riqnomalar, bosmadan chiqqan daftarlar va boshqalar o'quv qo'llanma sanaladi.

# “BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Loyiha muallifi: **Shahribonu RAHMATOVA.**

Hilola Yo'ldosheva bolaligidan tasviriy san'atga mehr qo'yg'an. Rassomlikka qiziqishi uni Pavel Benkov nomidagi Respublika rassomlik kollejiga chorladi. Hozir u Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining teatr bezagi rangtasviri yo'nalishida tahsil olmoqda.



Uning izlanishlari sahna badiiy bezagi tasvirini yaratish, kichik va katta dekorativ shakllar, rekvizit va atributlar, personaj va libos, usul-uslublar, sahna makon shakllari, spektakl ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonga yo'naltirilgan loyihalashni o'z ichiga oladi. Teatr bezagi rangtasviri san'ati dramatik va musiqali drama, opera, balet, qo'g'irchoq va boshqa estetik teatr yo'nalishlari, installyatsion obyektlar bilan uzviy bog'liq. Ijodkor katta-kichik asarlarida aynan o'sha jihatlarga e'tibor qaratadi.

Hayotdagi shiori – “Inson nimadir ezgu maqsad qilgan bo'lsa, butun koinot uning niyatini amalga oshirishga intiladi”. Hilola ko'plab xalqaro va respublika tanlovlarida, ijodiy festivallarda ishtirok etib kelmoqda. Rossiya, Hindiston, Germaniya, Xitoy, Misr va boshqa davlatlarda tashkil etilgan tanlovlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Bu yutuqlari natijasida joriy yil Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi.



Hilola yaratgan har bir asarning o'ziga xos tarixi, asoslari bor. Shunday asarlardan biri – 2020-yili butun insoniyat boshiga tushgan og'ir musibat – kovid pandemiyasi davrida ishlangan bo'lib, nomi “Mustahkam oila – yurt kelajagi”dir. Insonning boshiga har xil sinovlar, musibatlar tushgan paytda unga faqatgina oilasi, yaqinlari dalda va madad bo'ladi. Pandemiya hamma o'z uyida, oilasi davrasida bo'ldi, hayotning qanday go'zalligi, shirinligi va bebaholigini anglab yetdi. “Mustahkam oila – yurt kelajagi” asarida sinovli davrlar tasvirlangan bo'lsa-da, ijodkorimiz yorqin va e'tiborni tortadigan, insonni yashashga undaydigan ranglardan foydalangan.



**Hilola  
YO'LDOSHEVA**

– Oilamiz, yaqinlarimiz bilan o'sha mudhish davrlardan eson-omon o'tib oldik. Oila na-faqat bu kabi kasalliklardan, balki turli yot g'oyalar, yomon illatlar, kelajagimizga rxna soladigan ko'plab xavf-xatarlardan himoya qiluvchi mustahkam dargohdir. Shu sababdan ushbu asarimni “Mustahkam oila – yurt kelajagi” deb nomlaganman, – deydi Hilola Yo'ldosheva.

Ushbu ijodiy asar Hilolaga bir qator olqishlarni, yutuqlarni olib keldi. Xususan, “Biz, yoshlar – Covid-19ga qarshimiz” shiori ostida tashkil etilgan tanlovda faxrli o'rinni qo'lga kiritdi.

Hilolaning kelgusidagi eng ezgu maqsadlaridan biri yetuk teatr rassomi bo'lish va o'zi tanlagan sohani yanada rivojlantirishdir.

**YOSHLAR  
OVOZI**

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahhih:  
**Rashid XO'JAMOV**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Ozgacha materiallarni tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

“Sharaq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonasi manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma – 955, Adadi – 10525. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



123456